Xalqaro moliya institutlari va ekspertlar tahlillariga ko'ra, naqd pulsiz aylanmaning ortishi yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish, soliq tushumlarini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda moliya-bank tizimini isloh qilish, uni xalqaro andozalarga moslashtirish va raqamlashtirish borasida keng ko'lamli davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni¹ bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakat moliya sektorini innovatsion texnologiyalar asosida qayta qurish uchun muhim huquqiy va amaliy zamin yaratdi [1; 3-b.]. Ushbu strategiya doirasida tijorat banklarining an'anaviy xizmat ko'rsatish modellaridan voz kechib, mijozlarga masofadan turib to'liq raqamli xizmatlar ko'rsatuvchi, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) tahliliga asoslangan aqlli bank tizimlariga o'tishi asosiy maqsad etib belgilangan.

O'zbekiston moliya bozorida Uzcard va Humo milliy to'lov tizimlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shuningdek, turli elektron hamyonlar va FinTech ilovalarning ommalashishi aholi o'rtasida P2P (Peer-to-Peer, ya'ni mijozdan mijozga) o'tkazmalarining rekord darajada o'sishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotida qayd etilishicha, bank tizimi barqaror rivojlanmoqda, elektron xizmatlar qamrovi mamlakatning eng chekka hududlarigacha yetib bormoqda [3; 170-b.].

Ammo raqamli to'lov tizimlarini amaliyotga joriy etish katta texnologik va iqtisodiy yutuqlar bilan bir qatorda qator tizimli muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu jarayonlarni, ya'ni tizimning raqamli imkoniyatlari hamda uni amaliyotda qo'llashda yuzaga kelayotgan to'siqlarni statistik yondashuv asosida tahlil qilishga bag'ishlangan.

Hozirgi kunda tijorat banklarida raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Birinchidan, banklar va to'lov tizimi operatorlarining axborot-texnologik infratuzilmasi ortib borayotgan tranzaksiyalar oqimiga bardosh bera olmayapti. Bayram kunlari, oylik maosh va pensiyalar tarqatiladigan davrda serverlarning ortiqcha yuklanishi oqibatida tizimlarda tez-tez uzilishlar kuzatilmoqda, bu esa mijozlarning e'tirozlariga va bankka bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, kibexavfsizlik tahdidlari eng dolzarb muammoga aylangan. Firibgarlar ijtimoiy injiniring, phishing va smishing kabi usullardan foydalangan holda mijozlarning plastik karta ma'lumotlarini o'g'irlash hamda mablag'larni ruxsatsiz o'zlashtirish holatlarini ko'paytirmoqda [14; 28-b.]. Afsuski, barcha tijorat banklari ham zamonaviy antifrod (firibgarlikka qarshi) mexanizmlariga hamda sun'iy intellektga asoslangan anomaliyalarni aniqlash tizimlariga yetarlicha sarmoya kiritmagan.

Uchinchidan, hududlar kesimida raqamli tafovut muammosi saqlanib qolmoqda. Agar yirik shaharlar va tuman markazlarida kontaktsiz to'lovlar, QR-kod orqali to'lovlar va NFC texnologiyalari keng ommalashgan bo'lsa, chekka qishloq hududlarida barqaror internet aloqasining yo'qligi hamda terminal infratuzilmasining yetishmasligi oqibatida aholi hanuzgacha naqd pullarga tayanishda davom etmoqda [15; 89-b.].

To'rtinchidan, tijorat banklari, FinTech kompaniyalar va to'lov tizimi operatorlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining mukammal emasligi mijozlarga yagona ekotizimdan foydalanish imkonini bermayapti. Ochiq bank tizimi (Open Banking) hamda standartlashtirilgan API interfeyslarini joriy etish borasidagi huquqiy va texnik me'yorlar endigina shakllanmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – O‘zbekiston tijorat banklarida zamonaviy to‘lov tizimlarini joriy etishning amaldagi holatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari asosida chuqur tahlil qilish, sohada mavjud bo‘lgan texnik, iqtisodiy, huquqiy va xavfsizlikka oid muammolarni tizimlashtirish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasiga tayangan holda amaliy va strategik takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bu borada 2023–2024-yillardagi eng so‘nggi raqamli ma‘lumotlar, tranzaksiyalar hajmi va o‘shish sur‘atlari, milliy to‘lov tizimlarining bozor ulushlari qiyosiy o‘rganilib, muammolarning asosiy sabablari va oqibatlari baholandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida zamonaviy to‘lov tizimlarini joriy etish, bank faoliyatini raqamlashtirish hamda kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalalari uzoq yillardan buyon xorijiy va mahalliy olimlar, shuningdek, iqtisodchi ekspertlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jahon amaliyotida moliyaviy texnologiyalar (FinTech) hamda an’anaviy bank tizimi o‘rtasidagi raqobat va hamkorlik munosabatlari F. Allen, T. Baxt, M. Kertis kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan.

Mazkur tadqiqotlarda raqamli innovatsiyalarning moliyaviy vositachilik jarayonlariga ta‘siri, elektron to‘lov tizimlarining samaradorligi hamda bank xizmatlari bozorida yangi raqobat muhiti shakllanishi masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham bank tizimini raqamlashtirish yo‘nalishida salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Sh. Zaynutdinov va K. Abduraxmanov kabi iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy maqolalarida raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari, FinTech kompaniyalarining bank xizmatlari bozoriga ta‘siri hamda tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirish masalalarini yoritib berganlar [8; 45-b.].

U.A. Uzakovning 2025-yilda nashr etilgan tadqiqotlarida raqamli to‘lovlar va elektron pul aylanishi iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida asoslanib, tijorat banklarining xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiyalashuvi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilingan [9; 12-b.].

Shuningdek, F. Azimov va A. Xayitovlarning so‘nggi ilmiy ishlarida raqamli bank ekotizimida avtomatlashtirilgan xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek, yangi avlod valyuta operatsiyalari uchun zarur bo‘lgan integratsiyalashgan raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan [10; 34-b.], [11; 21-b.].

Biroq tijorat banklarining o‘zaro tizimli integratsiyasi, to‘lov infratuzilmasi barqarorligini ta‘minlash hamda kiberxavfsizlik risklarini kamaytirish borasidagi qator muammolar hanuzgacha kompleks ilmiy yechimini topmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun iqtisodiy tahlilning an’anaviy hamda zamonaviy usullaridan samarali foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining raqamli to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish amaliyoti, shuningdek, Uzcard va Humo milliy to‘lov tizimlari tanlab olindi.

O‘rganilayotgan jarayonning ko‘p qirrali xususiyatini inobatga olib, metodologik asos sifatida tizimli yondashuv (systematic approach) hamda qiyosiy tahlil (comparative analysis) usullari tanlandi. Dastlabki bosqichda zamonaviy to‘lov tizimlariga oid milliy qonunchilik bazasi, jumladan, “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezidentning tegishli farmonlari konseptual jihatdan o‘rganib chiqildi [2; 11-b.].

Tadqiqotning axborot bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil hamda 2024-yil birinchi yarim yilligi holatiga doir rasmiy statistik byulletenlari, milliy ommaviy axborot vositalari va axborot portallari — Gazeta.uz, Spot.uz, Daryo.uz tomonidan e‘lon qilingan ishonchli moliyaviy hisobotlar, shuningdek, tijorat banklarining ochiq ma‘lumotlari yig‘ildi va tizimlashtirildi [4; 1-b.], [5; 2-b.].

Statistik ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayonida guruhlash, dinamika qatorlarini tahlil qilish, ekstrapolyatsiya hamda vizualizatsiya usullaridan keng foydalanildi. Xususan, 2022–2023-yillardagi P2P o‘tkazmalari, QR-kod tranzaksiyalari hamda tezkor to‘lov tizimlari orqali pul aylanmalari hajmlarining o‘shish sur‘atlari foiz va mutlaq qiymatlarda hisoblab chiqildi.

Uzcard va Humo tizimlarining bozor ulushidagi o‘zgarishlari korrelyatsion bog‘liqlik asosida tahlil qilinib, mijozlar xulq-atvoridagi o‘zgarish omillari baholandi. Sifat tahlili bosqichida esa tijorat banklarining raqamli xizmatlarida yuzaga kelayotgan texnik nosozliklar hamda kiberxavfsizlik insidentlari fenomenologik yondashuv orqali o‘rganildi.



Mahalliy tijorat banklari infratuzilmasining holati xorijiy davlatlar, jumladan, Singapur va AQShning yirik banklari — DBS Bank hamda JPMorgan Chase tajribasi bilan qiyoslanib, O'zbekistondagi muammolarning asosiy sabablari yuzasidan mantiqiy xulosalar ishlab chiqildi [13; 5-b.].

Shu tariqa, tanlangan metodologik apparat tadqiqot natijalarining yuqori darajadagi ishonchligini, statistik ko'rsatkichlarning obyektivligini hamda ilgari surilgan takliflarning amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida raqamli to'lov tizimlarining qay darajada ommalashayotganligini aniqlash uchun, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish lozim. So'nggi yillarda O'zbekistonda naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish borasida erishilgan natijalar e'tiborga molikdir.

2024-yil boshiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olgan hisobotlarga ko'ra, tijorat banklari tomonidan masofaviy identifikatsiya (remote onboarding), onlayn kreditlash, mikroqarz va iste'mol kreditlarini tezkor ajratish, shuningdek, raqamli omonat mahsulotlari keng joriy etildi. Natijada 2024-yilda chakana kreditlar hajmi 120 trillion so'mdan oshgan bo'lib, ularning katta qismi aynan mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali masofadan rasmiylashtirilgan.

To'lov tizimlari faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, jismoniy shaxslar o'rtasida amalga oshirilayotgan P2P (kartadan kartaga) o'tkazmalari bozori jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari, jumladan, Gazeta.uz va Daryo.uzda e'lon qilingan hamda Markaziy bank ma'lumotlariga tayangan statistik ko'rsatkichlarga asosan, 2023-yil davomida milliy to'lov tizimlari bo'lgan Uzcard va Humo tarmoqlarida amalga oshirilgan P2P pul o'tkazmalari umumiy hajmi 224,3 trillion so'mni tashkil etdi [4; 1-b.], [6; 1-b.].

Mazkur ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 80,8 trillion so'mga yoki qariyb 56 foizga yuqori ekanligini ko'rsatadi. Boshqa tizimlar ham parallel ravishda rivojlanmoqda. Xususan, 2023-yilda Markaziy bankning tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 78 foizga oshib, 31,4 million taga yetdi.

Yuridik shaxslar o'rtasidagi pul o'tkazmalari hajmi ham uchdan bir qismga oshib, 603,8 trillion so'mni tashkil etdi. Eng muhimi, xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov topshiriqnomalarining 91 foizini bankka tashrif buyurmagan holda, masofaviy bank xizmatlari tizimlari orqali jo'natishga muvaffaq bo'ldilar.

Rivojlanayotgan yana bir muhim segment QR-kodli to'lovlar texnologiyasi hisoblanadi. 2023-yilda tadbirkorlarga berilgan QR-kodlar soni 100,7 ming donaga yetib, ular bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi qariyb 2,5 barobarga oshdi hamda 137 mlrd so'mdan 337 mlrd so'mga yetdi [5; 2-b.]. Bu raqamlar nafaqat yirik shaharlarda, balki chekka hududlarda ham smartfon va mobil ilovalar yordamida to'lov qilish madaniyati shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Biroq bozordagi asosiy raqobat Uzcard va Humo tizimlari o'rtasida kechmoqda. Mazkur tizimlarning bozordagi ulushini tahlil qilish uchun quyidagi jadval ma'lumotlariga murojaat qilamiz (1-jadval).

1-jadval. Uzcard va Humo to'lov tizimlari orqali amalga oshirilgan P2P o'tkazmalari dinamikasi (2022–2023-yillar)

Yillar	Jami hajm (trln so'm)	Uzcard ulushi (%)	Humo ulushi (%)
2022	143,5	68,3	31,7
2023	224,3	65,7	34,3

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari shuni aniq ko'rsatadiki, har ikki tizim mutlaq hajm jihatidan sezilarli o'sishga erishgan bo'lsa-da, bozor ulushlari nisbatida Humo tizimining pozitsiyasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Uzcard 2022-yilda 68,3 foizlik ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 65,7 foizgacha pasaydi. Aksincha, Humo tizimi o'z ulushini 31,7 foizdan 34,3 foizgacha oshirishga muvaffaq bo'ldi [7; 3-b.].

Humo tizimining jadal o'sishi uning zamonaviy NFC texnologiyasi asosida kontaktsiz to'lovlarni qulay amalga oshirish imkonini berishi, xalqaro bank kartalari bilan samarali integratsiyalashgani hamda ko'plab jamoat transportlarida qulay to'lov vositasi sifatida joriy etilgani bilan izohlanadi.

O'z navbatida, 2023-yilda amalga oshirilgan muhim ijobiy o'zgarishlardan biri bank kartalari foydalanuvchilari uchun Humo va Uzcard o'rtasida bankomatlar tarmog'ining o'zaro integratsiya qilinganligidir [3; 170-b.]. Mazkur jarayon natijasida har ikki tizim mijozlari qo'shimcha foizsiz va cheklovlarsiz bankomatlardan muqobil foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada aholining 85 mlrd so'mdan ortiq komissiya xarajatlari tejalishiga erishildi.

Shu bilan birga, yuqori statistik natijalar ortida tijorat banklarining to'lov infratuzilmasini jiddiy sinovdan o'tkazayotgan qator yashirin va tizimli muammolar ham mavjud bo'lib, ularni axborot tizimlari faoliyatini chuqur tahlil qilish hamda xavfsizlik protokollarini o'rganish orqali aniqlash mumkin.

Raqamli to'lov xizmatlari bozoringa jadal rivojlanishi tabiiy ravishda tijorat banklarining apparat va dasturiy ta'minot infratuzilmasiga katta bosim yuklamoqda. Amaliy tadqiqotlar hamda ommaviy axborot vositalarida yoritilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, tizimlarning vaqtinchalik ishdan chiqishi (downtime) tijorat banklari uchun hanuzgacha dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda [14; 28-b.].

Tijorat banklarining mobil ilovalari oylik ish haqlari va nafaqalar tushgan kunlarda, tranzaksiyalar soni odatdagidan bir necha barobar oshib ketgan sharoitda, tizimli nosozliklarga uchramoqda. Buning asosiy sababi aksariyat banklarning ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari (Data Center) eskirganligi hamda monolit arxitektura asosida qurilgan dasturiy ta'minotdan hanuz foydalanib kelinayotganligidir.

Zamonaviy mikroxizmatlar arxitekturasi (Microservices Architecture) va bulutli texnologiyalar (Cloud Computing) tijorat banklari amaliyotiga endigina kirib kelmoqda.

Ikkinchi va eng muhim muammolardan biri kiberxavfsizlik masalasidir. Elektron to'lov tizimlarida jismoniy shaxslarning mablag'lari turli tahdidlarga duch kelmoqda. Xususan, ijtimoiy injiniring, phishing sahifalar hamda soxta mobil ilovalar orqali plastik karta raqamlari va SMS tasdiqlash kodlarini qo'lga kiritish holatlari ortib bormoqda.

O'zbekiston tijorat banklarining barchasida ham ilg'or sun'iy intellektga asoslangan antifrod (anti-fraud) tizimlari yetarli darajada mukammal ishlamaydi. Xalqaro xavfsizlik standartlariga, jumladan, PCI-DSS (Payment Card Industry Data Security Standard) talablariga mos himoya tizimlarini yaratish katta moliyaviy sarmoya hamda yuqori malakali IT-mutaxassislarni talab etadi. Biroq kadrlar taqchilligi mazkur yo'nalishdagi ishlarni sekinlashtirmoqda (1-rasm).



1-rasm. Zamonaviy bank to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va raqamli tahdidlar ekotizimi

Quyidagi tasvirda raqamli tahdidlar ekotizimi hamda banklarning himoya chorolari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aks ettirilgan. Yuqorida keltirilgan 1-rasmda raqamli to'lov tizimlariga qaratilgan turli kiberhujumlar va ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi himoya ekotizimi konseptual tarzda ifodalangan.



Ko'rinib turibdiki, firibgarlar nafaqat to'g'ridan-to'g'ri bank serverlariga, balki eng zaif bo'g'in hisoblangan mijozlarning shaxsiy qurilmalariga ham xavf solmoqda. Mazkur holat tijorat banklaridan o'z mijozlarining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli axborot kampaniyalarini amalga oshirishni talab etadi.

Bundan tashqari, hududlardagi nomutanosib rivojlanish va tarmoq muammolari to'lov tizimlarining universal ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Qishloq va uzoq tumanlarda optik tolali internet tarmog'ining barqaror emasligi hamda elektr energiyasidagi uzilishlar savdo shoxobchalarida terminallarning ishlamasligiga, pirovardida esa aholining naqd pul yechishga bo'lgan ehtiyojining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Qolaversa, API (Application Programming Interface) xizmatlari orqali uchinchi tomon dasturchilariga moliyaviy ma'lumotlarni xavfsiz tarzda ochishni nazarda tutuvchi "Ochiq bank" (Open Banking) tizimining regulyativ jihatdan to'liq shakllanmaganligi xususiy FinTech kompaniyalarining imkoniyatlarini cheklab, banklar o'rtasida haqiqiy raqobat muhitining shakllanishini sekinlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, statistik o'sish ko'rsatkichlarining jozibadorligi ortida mamlakat moliya muassasalari tomonidan zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan texnologik va strategik to'siqlar mavjud.

Tadqiqot doirasida olingan tahliliy ma'lumotlar va statistik ko'rsatkichlar shuni aniq ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi jadal, biroq murakkab va ko'p qirrali jarayondir.

Bir tomondan, P2P tranzaksiyalari hajmining qariyb 56 foizga oshishi hamda elektron to'lov xizmatlarining ommalashishi iqtisodiyotni yashirin sektordan chiqarish borasida muhim ijobiy qadam hisoblanadi.

Boshqa tomondan esa, kiberxavfsizlik, tizim integratsiyasi va infratuzilmaning eskirgani bilan bog'liq muammolar nafaqat mijozlarning moliyaviy yo'qotishlariga, balki umuman bank tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur holat jahon miqyosida o'tkazilgan FinTech tadqiqotlari natijalari bilan hamohangdir. Ya'ni har qanday rivojlanayotgan iqtisodiyotda texnologik innovatsiyalar qamrovi kengaygani sari, kiberxatarlar darajasi ham mutanosib ravishda ortib boradi.

O'tkazilgan izlanishlar natijalarini xorijiy davlatlar, xususan, Singapur va Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi bilan solishtirish muhim xulosalarni beradi [13; 5-b.].

Masalan, DBS Bank o'zining ichki boshqaruv tizimini agile modellar asosida qayta ko'rib chiqib, xodimlarning raqamli savodxonligini oshirishga katta miqdorda investitsiyalar yo'naltirgan. JPMorgan Chase esa o'z to'lov tizimlarida sun'iy intellekt va mashinali o'rganish (Machine Learning) texnologiyalaridan foydalanish orqali firibgarlik operatsiyalarining 95 foizdan ortig'ini avtomatik aniqlash va bloklash darajasiga erishgan.

O'zbekiston tijorat banklarida esa raqamli transformatsiya ko'p hollarda faqat mobil ilovalar yaratish bilan cheklanib qolmoqda. Biroq ushbu ilovalarning ortida faoliyat yurituvchi back-end arxitekturasi hamda ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari ayrim hollarda hanuz avvalgi davr texnologiyalariga tayanadi.

Muhokama qilinishi lozim bo'lgan yana bir dolzarb masala — "Ochiq bank" (Open Banking) ekotizimini joriy etish jarayonidagi sustlikdir. Tijorat banklari ko'pincha mijozlar tranzaksiyalari tarixini uchinchi tomon FinTech tashkilotlariga xavfsiz API orqali taqdim etishda ehtiyotkor yondashmoqda. Bu holat, asosan, ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq risklar hamda regulyativ talablarning yetarlicha aniq shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli to'lov tizimlarining jadallik bilan kengayishi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish yo'lidagi muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tizimlarni amaliyotga joriy etish jarayonida qator tizimli va institutsional muammolar ham namoyon bo'lmoqda.

2023-yilda jismoniy shaxslar o'rtasidagi o'tkazmalar hajmining qariyb 56 foizga oshib, 224,3 trillion so'mga yetgani aholining naqd pulsiz hisob-kitoblarga o'tishga yuqori darajada tayyor ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, Uzcard va Humo tizimlari o'rtasidagi sog'lom raqobat, ularning o'zaro integratsiyalashuvi hamda bank xizmatlarining 90 foizdan ortig'i masofaviy shaklda ko'rsatilayotgani ijobiy tendensiya sifatida baholanadi.

Biroq tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, serverlarning ortiqcha yuklanishi natijasida yuzaga keladigan texnik nosozliklar, firibgarlik holatlarining ijtimoiy injiniring usullari orqali ortib borishi hamda hududlarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi kelgusida tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va tijorat banklarida zamonaviy to'lov tizimlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchiidan, tijorat banklari apparat va dasturiy ta'minot infratuzilmasini monolit tizimlardan zamonaviy mikroxizmatlar arxitekturasi hamda bulutli texnologiyalarga bosqichma-bosqich o'tkazishlari zarur. Bu chora yuqori yuklama davrlarida server barqarorligini ta'minlaydi.

Ikkinchiidan, mijozlarning moliyaviy xavfsizligini kuchaytirish maqsadida sun'iy intellekt asosida nodatiy tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlovchi va bloklovchi zamonaviy antifrod (anti-fraud) tizimlarini barcha banklarda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, O'zbekistonda "Ochiq bank" (Open Banking) ekotizimini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tegishli huquqiy asoslarni takomillashtirish hamda API integratsiya standartlarini yagona shaklga keltirish lozim. Mazkur choralar banklar va FinTech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi.

To'rtinchidan, axborot xavfsizligi bo'yicha bank xodimlari va mijozlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan muntazam o'quv dasturlari, seminarlar va axborot kampaniyalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ubaydullayeva kabi milliy ekspertlarning qarashlariga ko'ra, sifatli raqamli bank xizmatlari faqat ishonchli muhit va barqaror normativ-huquqiy asos mavjud bo'lgan sharoitda yuqori samaradorlik beradi.

Mazkur maqolada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar milliy to'lov tizimlari xavfsizligini mustahkamlashga, ularning samaradorligini oshirishga hamda xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. [1; 3-b.] <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-578-son, 2019-yil 1-noyabr. [2; 11-b.] <https://lex.uz/docs/-4575786>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2023-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobot. Toshkent, 2024-yil. [3; 170-b.]
4. Gazeta.uz. 2023-yilda Uzcard va Humo'da amalga oshirilgan kartadan kartaga pul o'tkazmalari hajmi 1,5 baravar ko'paydi. 2024-yil 8-fevral. [4; 1-b.]
5. Spot.uz. 2023-yilda Uzcard va Humo orqali pul o'tkazmalari hajmi 80 mlrd so'mga oshdi. 2024-yil 8-fevral. [5; 2-b.]
6. Daryo.uz. O'zbekistonda Uzcard va Humo orqali pul o'tkazmalari hajmi ikki barobarga oshdi. 2024-yil 9-fevral. [6; 1-b.]
7. Kursiv.media. O'zbekistonda Uzcard va Humo'da P2P pul o'tkazmalari ommalashib bormoqda. 2024-yil 8-fevral. [7; 3-b.]
8. Sh. Zaynutdinov, K. Abduraxmanov. Raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali. 2023-yil. [8; 45-b.]
9. U.A. Uzakov. Raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich. Iqtisodiyot va moliya jurnali. 2025-yil. [9; 12-b.]
10. F. Azimov. Raqamli bank ekotizimida avtomatlashtirilgan valyuta operatsiyalarining xizmatlar sifatiga ta'siri: O'zbekiston tajribasi. Moliya bozori xabarnomasi. 2025-yil. [10; 34-b.]
11. A. Xayitov. O'zbekistonda keyingi avlod valyuta operatsiyalari va integratsiyalashgan raqamli infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion menejment to'plami. 2025-yil. [11; 21-b.]
12. Asia Alliance Bank. Yillik faoliyat yakunlari va bankning raqamli biznes-rejasi ko'rsatkichlari. 2022-yil. [12; 10-b.]
13. Neliti.com. O'zbekiston va Amerika banklarining chakana xizmatlari tahlili: muammo va yechimlar. Xalqaro maqolalar bazasi. 2024-yil. [13; 5-b.]
14. Cyberleninka.ru. "Internet-banking" elektron to'lovlar tizimi va ularda axborot-kiberxavfsizlik masalalari tahlili. 2024-yil. [14; 28-b.]
15. G'aniyev Diyorbek. Tijorat banklarida raqamli to'lov tizimlarini o'rganish va statistika usullarini takomillashtirish. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti xabarnomasi. 2023-yil. [15; 89-b.]

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100